

Kreativ geografiya darslari. Geografiya fanidan guruhlar bilan ishlash bo'yicha uslubiy qo'llanma

Dilafuz Ta'nakulovna Norova
dilafruznorova18@gmail.com

Samarqand viloyati Jomboy tumani 7-maktab

Annotatsiya: Ushbu uslubiy qo'llanma zamonaviy geografiya darslarining asosiy savoli "Nimani?" va "Qanday" o'qitish zarur kabi savollarga javob beradi. Geografiya fanida guruhlar bilan ishlash, ular o'rtasida sog'lom raqobat orqali o'qitishni shakllantirish. Guruhlar va individual o'qitishda kreativ fikrlash uchun zarur bo'lgan sharoitlar va mashg'ulot haqida ma'lumotlar, "Mening fikrim", "kreativ yondashuv", "Taassurot" kabi yangicha o'qitish uslublari bilan tanishish mumkin.

Kalit so'zlar: Kreativ geografiya, GIS meni top, mo'ljallangan maydonda yashirin so'z, kreativ fikrla, javobini top, poytaxt va bayrog', ob havo darakchisi ilmiy tahlil, xulosa

Creative geography lessons. A handbook on working with groups in geography

Dilafuz Tanakulovna Norova
dilafruznorova18@gmail.com

Samarkand region, Jambay district, School №7

Abstract: This handbook is the main question of modern geography lessons "What?" and "How" to teach. Working with groups in geography, shaping teaching through healthy competition between them. Information about the conditions and activities needed for creative thinking in group and individual teaching, "My opinion", "Creative approach", New teaching methods, such as "Impressions", are available.

Keywords: Creative geography, GIS find me, hidden word in the intended area, creative thinking, find the answer, capital and flag, weather forecast scientific analysis, conclusion

KIRISH

Bugun biz o'quvchiga berayotgan bilimimiz shunchaki bilim emas ijod manba bo'lmog'i lozim.

(N.D.Ta'nakulovna)

Ushbu metodologik uslubiy qo'llanma kutilayotgan "Yangi milliy dastur" uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quvchilarga nimani qanday o'rgatish zarurati borasida yechimlarni taqdim etadi. Endilikda geografiya darslarida ham xalqaro talablarga mos ravishda o'qitish yo'lga qo'yiladi, ya'ni o'quvchi bilim olishi uchun unga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, bilim ko'nikma orqali o'quvchilarda ijodiy fikrlashni yuksaltirish, masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Maqsad: Guruhlar bilan ishlash bo'yicha o'qituvchilar uchun tizimli qo'llanma yaratish. Samaraga ega bo'lgan uslublar bilan ishlash yo'llari bo'yicha tavsiyalar va misollar keltirish, geografiya o'qituvchilarda kreativ o'qitish metodikasi bo'yicha tushunchalarni shakllantirish, geografiya fani "Yangi milliy dastur" bo'yicha o'qitishga o'quvchilarni moslashtirib borish.

Vazifalari

O'qituvchilar oldidagi vazifalari:

- ✓ Guruhlar bilan o'tkazilgan musobaqalarga yangicha yondashuv kiritish
- ✓ Guruhlar bilan ishlashda yangi o'quv uslublarini qo'llashni targ'ib qilish
- ✓ Ijodiy geografiya darslarini tashkil etish
- ✓ Maqsadli geografiya darslari bo'yicha o'qituvchilarga tavsiyalar berish
- ✓ Yangicha o'quv metodikasini taqdim etish va ommalashtirish

O'quvchilar oldidagi vazifalari:

- ✓ O'quvchilarni geografiya faniga qiziqishini shakllantirish
- ✓ O'quv samaradorligini oshirish
- ✓ O'quvchilarni maktab darajasidan ijodiy fikrlashga o'rgatish orqali, geografik global muammolar borasida o'z yechimini taqdim qilishga o'rgatish

✓ O'quvchilarda amaliyotda zarur bo'lgan hayotiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish

Asosiy qism

1-jadval

Guruhlar bilan ishlashda tavsiya etilgan metodlar va interfaol o'yinlar

№	Guruhli o'qitish metodlari nomi	Tashkiliy guruhlar soni	Mo'ljallangan vaqt
1	Mo'ljallangan maydonda yashirin so'z	6 ta	2 mn
2	Ob havo darakchisi ilmiy tahlil	2 ta	1 mn
3	Gap yasash	3 ta	3 mn
4	Bayroq va Poytaxt	4 ta	2 mn
5	GIS -meni top	3 ta	1 mn
6	Kreativ fikirla	4 ta	4 mn
7	Javobini top	2 ta	3 mn

Yuqorida keltirilgan o'quv metodlari va interfaol o'yinlar bilan batafsil tanishib chiqamiz:

Mo'ljallangan maydonda yashirin so'z

Tavsifi: Ushbu o'yin o'quvchilardan epchillik topqirlik zukkolikni talab qiladi, o'quvchilarni materiklarni o'rganishda u yerdagi davlatlar va o'ziga xos jihatlari bilan birga qo'shma ma'lumotlar bilan eslab qolishga undaydi

Zarur sharoit: O'yin uchun 3 yoki 4 kishidan iborat kichik jamoalar jami 6 ta jamoaga ajratiladi. Kichik qog'ozlarga 6 ta materik nomi yoziladi va guruhlardan bittadan vakil chiqib o'z tanlovi yo'li bilan ma'lum bir qog'ozni tanlaydi, ushbu qog'ozda tushgan materik nomini e'lon qiladi.

O'qituvchi oldindan tayyorlab qo'ygan xarita yoki doskaga chizilgan xaritaga maxsus xar bir materikka yashirin so'zlarni joylaydi ushbu so'zlar o'sha materikning o'ziga xos jihatini ifodalashi kerak. Bolalar 2 daqiqa ichida materikdagi lug'atdan foydalanib materikning o'ziga xos jihatlarni sanab berishlari zarur. O'quvchilarga shart tushuntirilgach vaqtga start beriladi

Misol 1.

Yevrosiyo materigi

Taklif etilgan lug'atlar: Quruqlik, katta, aholi, orol

Javob

1. Quruqlikning 36,6 % ni tashkil qiladi
2. Yer sharidagi eng katta materik
3. Aholining 74 % (5.2 mlrd) joylashgan
4. 2.75 million km² qismi orollardan iborat

Shu kabi Afrika, Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Avstraliya, Antraktida materiklariga ham lug'atlar taklif qilinib javoblar 2 daqiqadan so'ng tekshirib ko'riladi qaysi komanda shartni to'liq va tezroq yakunlasa o'sha guruh balli sistemada baholanadi.

Ob havo darakchisi ilmiy tahlil

Tavsifi: Ushbu o'yin o'quvchilarni hodisalarni ilmiy tahlil qilishga o'rgatish va fanlar o'rtasida bog'liqlikni ta'minlaydi

Bunda Hayvonlardagi ob havo sharoiti o'zgarishi kutilishini bildiruvchi xususiyatlari o'rganiladi.

Zarur sharoit: ikkita yirik guruhga bo'linishadi. O'qituvchi navbati bilan hayvonlardagi xususiyatni aytganda guruhla navbati bilan bu xususiyat qanday ob havo oqimin olib kelishi mumkinligi borasida o'z fikrlarini bildirib bu hodisani ilmiy tahlil qilishga urinishadi va buning uchun o'quvchilarga 1 daqiqa vaqt ajratiladi.

Misol-2

Savollar:

Baqalar qurullay boshlasa(o'qituvchi)

Javob:

- Nam havo yog'ingarchilik kutiladi

Ilmiy tahlil (baqalar amfibiyalar ham quruqlikda ham suvda yashashga moslashgan bo'lib ularning teri qoplamasi o'ziga xos ular namgarchilikni sevadi havo haroratiga monand tana harorati ham o'zgarib turadi shuning uchun ularni sovuq qonli hayvonlar deb ataladi. Baqalar epiteliyida maxsus reflektorlar bo'lib ular sovuq issiq havo oqimi seza oladi va havo harorati yog'ingarchilik bo'lishini bilganda urg'ochi baqa sayraydi va juftini chorlaydi bunga sabab agar tez orada yog'ingarchilik va nam havo kirib kelsa baqa urug'lari quruqlikda qolmaydi nasli nobud bo'lmaydi.

Yuqorida keltirilgan misollar kabi

Qaldirg'och pastlab uchsa-yomg'ir yog'adi

Chumolilar iniga kirsamomaqaldiraq kutiladi

Kabi jumlar davom ettirilib guruhlar tomonidan hodisa tahlil qilinadi va eng ishonchli ilmiy tahlil yuqori ball bilan baholanadi va guruhlar kesimida hisoblanadi.

Gap yasash

Tavsifi: Bunda o'quvchilar 3 ta guruhga bo'linishadi o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo'yilgan O'zbekiston qizil kitobiga kiritilgan hayvonlar nomlari qir qilgan ko'rinishda.

Masalan:

Qo-ra Lay-lak, Tas-qa-ra, Qo'n-g'ir a-yiq

kabi bo'g'in ko'rinishiga keltirilib guruhlariga tarqatiladi va guruhlar ushbu bo'g'inlarda qaysi hayvon nomi mavjudligi va ushbu hayvon mintaqamizning qaysi geografik zonasida uchrashi aniqlab javob beriladi. Guruhlar 3 daqiqa vaqt ajratiladi

Misol-3

Qo-ra Lay-lak

So'z topilgach

Qora laylak -G'arbiy Tyan-Shan, G'arbiy Pomir-Oloy tekisliklari va past tog'i hududlarida, O'zbekistonning janubiy hududlarida Surxondaryo qo'riqxonasida uchraydi.


To'g'ri va to'liq javob 5 ballik sistemada baholanadi.

Bayroq va Poytaxt

Tavsifi: Bunda o'quvchilar davlatlar nomi poytaxti va bayrog'ini bir biriga bog'liq ravishda bir vaqtda o'rganishadi.

Zaruriy sharoit: O'yin sharti monitor orqali dunyo xaritasida ma'lum bir davlat hududida bayroq rasmi ko'rsatiladi va o'quvchilar ushbu bayroq va qaysi davlatga tegishli ekani va davlat poytaxtini aytishlari zarur.

Misol rasmda ko'rsatilgan



1-rasm Italiya davlati

Xaritada ifodalangan bayroq Italiya davlatiga tegishli bo‘lib uning poytaxti Rim shahri.

O‘yin o‘quvchilarga tezkor qaror qabul qilish fikrlash borasida ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida o‘tkaziladi monitordagi suratdagi javobni qaysi guruh birinchi va to‘g‘ri topsa o‘sha guruhga bal yozilib boriladi.

Tavsiya: Ushbu o‘yinni geografiya o‘qituvchilari har bir geografiya darsini boshlashdan oldin ,har bir mashg‘ulotda bir yoki ikkitadan davlatni o‘rganib borishsa yil yakuniga qadar bu samarali ko‘rsatgich beradi.

GIS - meni top

Tavsifi: O‘qituvchi tomonidan xat shakllantirilib unda ayni davlatdagi tengqur o‘quvchi o‘zining yasash manzili haqida ma’lumot keltiradi. O‘quvchilar 3 ta guruhlariga bo‘linib 3 ta planshet xarita bilan ta’minlanadi va o‘quvchilar xatdagi manzilni elektron xaritadan topib belgilab berishlari zarur.

Misol-5

Xat:Salom,men Milanaman men sendan 4 522 km uzoqlikda Mikeli shahridanman bizda havo ancha nam mening davlatim nomi....?

O‘quvchilar 2 daqiqa ichida Milanani joylashgan davlatni topishlari va unga borish yo‘li haqida ma’lumot berishi zarur.

Javob - Milana Filandiya davlatida istiqomat qiladi va u yerda 36 kun piyoda yurish 2 kunu 18 soatda mashinada ham yetib olish imkoni bor.

Kreativ fikrla

O‘qituvchi ushbu o‘yini uy vazifalaridan boshlaydi O‘quvchilar o‘zlari yashab turgan hududiga geografik muammoni topib yozib kelishlari zarur va ushbu muammoga guruh bilan yechim izlashga harakat qilib ko‘rishadi.

Misol: Bizning yashash manzilimiz hovlisi juda toshloq bu yerdan suv chiqmaydi bizdagi muammo ichimlik suvi va toshloq yerga o‘simlik o‘stirish.



Javob: Agar siz yashab turgan manzilda toshloq bo'lsa u yerga ildizi to'g'ri ildiz bo'lgan yer tubiga chuqur kirib boruvchi daraxt navlaridan o'tkazib dastlab ularni qo'lda sug'orib turilsa o'simlik ildiz olgach o'zi yaxshi o'sib oladi va bu yerga ham foydali daraxt chirindilar keyinchalik tuproq qatlamini hosil qilishi natijasida u yerga vaqt o'tishi bilan madaniy o'simliklarni xam o'stirishga imkon yaratdi

Ushbu metodda o'qitish bugungi kun talabi siz o'quvchiga fani bilimi bilan birga hayotiy bilimni berib borasiz.

Javobini top

Topishmoqli geografik savollar o'quvchilarda qiziqish uyg'otishi bilan birga ularga ko'tarinki ruh bag'ishlaydi. Guruhlar topishlar umumiy berilib qaysi guruhlar vakili birinchi va to'g'ri javob bersa 1 ballik sistemada baholanadi.

Misol

Harakatsiz barqaror

Yerda ikki nuqta bor

(Shimoliy va Janubiy qurib)

Bir nomda shahar cho'l

Shahar orol daryo ko'l

(Viktoriya)

Butun yil qish faslida

Bu qanday joy aslida

Nomini topgin Hafiza

Bu joy nomi

(Kapisa)

Xulosa

Xulosa.1. Ushbu uslubiy qo'llanma o'quvchilarga

- ❖ guruh bilan ishlashni
- ❖ egallagan bilimni hayotda qo'llashni
- ❖ Fanlar o'rtasida bog'liqlikni shakllantirishda
- ❖ Geografik tushunchalari joy nomlarini bir biriga bog'liq ma'lumotlar bilan birga eslab qolishni

- ❖ Tezkor fikrlashni
- ❖ Tabiat hodisalarini o‘zaro bog‘lab ilmiy tahlil qilishni
- ❖ Kreativ g‘oyalarni topish muammoni yechimi uchun kreativ fikrlashni
- ❖ O‘quvchining fikrlash dunyosini tasavvur dunyosini kengaytishni

va boshqa ko‘plab ijobiy ko‘rsatgichlarni shakllantirilishda rivojlantirishda qo‘llash samarali natijalar beradi. Ushbu metodlarni nafaqat guruhli balki individual ravishda shug‘ullanish, uyga vazifa sifatida berish yoki darsda jarayonida, boshlashdan oldin qo‘llash o‘quvchilar e’tiborini qaratishga fanga qiziqishini oshirishga yordam beradi. Qo‘llanmani o‘qituvchilar o‘z ijodiy qobiliyatlaridan foydalanib o‘z pedagogik qarashlari sohadagi moslashi mumkin.

References

1. “Зачем изучать географию?” А.Ж.Александровна Москва 2017 г
2. “Роль и функции учебника географии” Раиса Васильевна Москва 2020г